



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI O‘QUVCHILARNI BAHOLASH JARAYONIDA 4K RUBRIKALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH

Abdiyeva Qo‘ysintosh Azadovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti,

Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va medikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi.

Tel: 90-000-40-84 E-mail:

temuresanov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14747525>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro baholash tadqiqotlarida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish usullari haqida so‘z boradi. Kommunikativ kompetentsiya haqida ma‘lumotlar berilgan, kommunikativ kompetentligini takomillashtirish o‘quvchi nutqini rivojlantirish uchun foydali xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro baholash dasturi, PIRLS, kommunikativ faoliyat, kompetentlik, ijodiy fikrlash, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, nutqni rivojlantirish.

Kirish

PIRLS (inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study) – Bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfdagi tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnini o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Tadqiqot davriy ravishda har besh yilda bir marta o‘tkaziladi va hozirgacha ham besh marta; 2001, 2006, 2011, 2016, 2021-yillarda o‘tkazilgan. PIRLS tadqiqoti faqatgina o‘quvchilar savodxonligini aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimidan iborat bo‘libgina qolmay, o‘z ichiga bu borada olib borilayotgan ta‘limga olib borilayotgan islohotlarni aniqlovchi so‘rovnomalarni ham oladi. Bunday so‘rovnoma maktab ma‘muriyati, o‘qituvchilar hamda ota-onalar yoki vasiylar o‘rtasida amalga oshiriladi. O‘quvchilarning ta‘lim olishdagi imkoniyatlari va sharoitlari haqidagi so‘rovnoma ma‘lumotlarni ta‘lim natijalarini talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. PIRLS tadqiqotining muhim jihatlardan biri shuki, dasturda erishilgan natijalar tahlili hamda o‘tkazilgan so‘rovnoma ma‘lumotlarining umumlashtirilishi dunyo bo‘ylab o‘qish savodxonligini oshirishdagi eng yaxshi tajribalarga doir qimmatli ma‘lumotlarni to‘plash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligini jamiyat tomonidan talab qiladigan va inson tomonidan qadrlanadigan, yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Xalqaro baholash tadqiqotlaridan biri bu PIRLS o‘quvchilarni o‘qib tushunish darajasini aniqlaydi. Buning uchun hozirgi kun talabidan ham kelib chiqish mumkin o‘quvchilar matnini o‘qib uni tushuna olishlari uchun, to‘g‘ri tahlil eta olishlari uchun zamonaviy turli metodikalardan foydalanish lozim. Albatta buning uchun kommunikativlik alohida ahamiyatga ega. Kommunikativlik – bu o‘qituvchi - pedagogning alohida xususiyati bo‘lib, unda o‘quvchilar va hamkasblari bilan o‘zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Muloqot didaktik asosga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga bu komponent o‘qituvchining bolalar bilan muloqotda bo‘lishiga, o‘quvchilarga yondashish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga, pedagogik shaklning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatidir. O‘quvchi faoliyatida ham, uning nutqida ham kommunikativlik alohida o‘rin egallaydi.

2. Kommunikativlik (muloqotchanlik) ni rivojlantiruvchi usullar

Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi. Muloqot qilish ko‘nikmasi.

- muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati; ✓
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
- muloqot qoidalari ma‘nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish;
- o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta‘minlash;
- o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;



➤ katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyati.

“O‘z o‘rningni top” usuli. Tavsifi: Bu usulda o‘quvchilar kommunikativlikka jalb etish, dars jarayonida faolligini oshirish, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirganlik va tushunchalarni yodda saqlab qolganlik darajasini aniqlash, tushunchalar orasidagi bog‘lanishlarni topishga o‘rgatish uchun foydalanish mumkin. O‘quvchilarning o‘zlari hohlagan holda matnni yuqori darajada o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Ushbu metoddan boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi kitobidagi deyarli barcha mavzularda foydalanilsa bo‘ladi. Dast avval o‘quvchilar matn bilan tanishtiriladi, diqqat bilan tinglab turishi aytiladi. Bu metodni qo‘llashda o‘quvchilar tanishgan matnlarini to‘liqligicha yosh xususiyatiga qarab 4,5, yoki 6 qismlarga bo‘linadi. Bo‘lingan varaqlar tanlangan o‘quvchilarga beriladi va o‘qib chiqib doskaga chiqadi. Matnni qaysi qismida joylashganligiga qarab o‘z o‘rinlariga joylashadilar. O‘qituvchi nazorat qilgan holda qanday joylashganligini voqealar ketma-ketligi qay tartibda joylashganligini tushuntirib chiqadi.

Ushbu metod to‘g‘risida o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka hosil bo‘lgandan keyin, matnning o‘zini emas uning ichidagi gaplar ketma-ketligini aralashtirgan holda joylashtirish mumkin. Bunda matndagi hamma gaplar qatmashishi shart emas.

Erishiladigan natija: Bu o‘yin o‘quvchilarda hozirjavoblik, mantiqiy fikrlashni va kundalik hayotiy faoliyatimizda rivojlantiradi, shuningdek atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga, sodir bo‘layotgan hodisalarga qiziqishini oshiradi.

Qo‘llanilish doirasi: Bu metodni barcha darslarda mustahkamlash qismida o‘tkazish mumkin.

Foydalanish vositalari: O‘qituvchi, o‘quvchilar, mavzu ketma ketlikda yozilib chiqilgan aralashtirilgan tarqatmalarda foydalanishi mumkin.

O‘tkazish tartibi: “O‘z o‘rningni top” deb nomlanishi shundaki tanlangan o‘quvchilar matnni qaysi qismini ushlab turganligini bilishmaydi, sheriklari bilan o‘zaro muloqatga kirishib bir birlari bilan o‘rin almasib hikoya yoki matnni ketma ketligida joylashib oladilar. Shu orqali o‘quvchilar matnni qanday diqqat bilan eshitganligini, tushunganligini ularni bir biri bilan qanday muloqatga kirishishlarini, o‘z fikrini ifodalay olishni o‘zgalar fikrini tinglay olish kabi xususiyatlarni o‘zlarida shakllantirib boradi.

(4-sinf o‘qish savodxonligi)

“Toshbag‘ir”

Jabbor Razzoqov

Qishloq tog‘ yonbag‘irlarida joylashganligi bois, xushhavo, sersuv, ajib bir manzilgoh bo‘lib, u yerda oq qayin, ancha, yovvoyi jiyda, do‘lana kabi daraxtlar juda ko‘p edi.	Ular ko‘pdan beri bugungidek miriqib uxlamagandi. Yangi tong mehmonlarga yanada zavqli, orombaxsh va musaffo bo‘lib tuyildi.
Ravshan ismli yigit uyda qoldi. Uning qalbini muzdek havo va sokinlik elitdimi, karavotga cho‘zilgan ko‘z ilindi.	Qafasga solib, sayratib qo‘yamiz, -dedi xotirjam va qushning oyog‘iga ip solib, karavotiga qo‘yib qo‘ydi. Oraga allaqanday noxushlik tushdi. Uch o‘rtoq shu kecha bir-birini tanimagandek, hissiz, bee‘tibor yotishdi...
Mehmonlar minnadorchilik bildirishdi. Ammo dardlari ichida edi. Ular xonadan chiqib, bir necha qadam yurib-yurmay, ichkaridan Ozodning chinqirig‘i eshitildi.	

3. Xulosa

PIRLS tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta‘lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda davlat nufuzini mustahkamlash bilan birga o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to‘ldirishga yo‘naltirilgan. PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini ham baholab boradi. 2021-yil uchun mo‘ljallangan tadqiqotlarda O‘zbekistonning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ham ishtirok etishining belgilangan edi. Bu qaroq o‘qituvchilarga juda katta mas‘uliyat yukladi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchilardan ta‘limimizga yangicha yondoshuvni va faolligini namoyon qilishlarini talab etadi. O‘quvchilarining xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchilar o‘zi mustaqil ravishda matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi berilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o‘zlashtirganini uning savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o‘qituvchilarning dunyoqarashi, mustaqil fikrlash va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrni tinglab, to‘g‘ri xulosani hayotiy faktlar orqali



chiqarishga o'rganib boradi. PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi Xalq ta'limi tizimini 2023- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini to'g'risidagi PF5712 sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>
2. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari. – Toshkent, 2021. -252 bet.
3. “Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. -T.: 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
5. 4-sinf o'qish savodxonligi kitobi “Toshbag'ir” hikoyasi “PIRLS 2021 International results”
6. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim instituti huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil. 92 b.